



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi

___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yili 10-sinf
o'zbek tili fanidan I chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 10-sinf o‘zbek tili fanidan I chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazar iy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	2000 yillik tarix (Loyiha ishi mavzusini baholash va e‘lon qilish)	1		
2.	Renessans	1		
3.	Sharq bozorlari	1		
4.	Sharq mutafakkirlari	1		
5.	Donolar bisotidan	1		
6.	Samoga yo‘l	1		
7.	O‘zbek tili tarixidan	1		
8.	Bu nimani anglatadi?	1		
9.	Nechta do‘stim bo‘lishi kerak?	1		
10.	1-BSB. (20 ball) Rasm asosida matn yaratish	1		
11.	Qadimiy me‘moriy obidalar. Olam mo‘jizalari	1		
12.	Muzeylar	1		
13.	Yurtimiz muzeylari	1		
14.	Ko‘hna va navqiron shaharlar	1		
15.	Tarixiy kutubxonalar	1		
16.	Kitob va mutolaa	1		
17.	Afsonalar. To‘maris	1		
18.	2-BSB. (30 ball) Loyiha ishi taqdimoti	1		
19.	Shiroq	1		
20.	Baobab afsonasi	1		
21.	Rivoyatlar	1		
22.	Savdo yo‘llari	1		
23.	Afsonaviy qush	1		
24.	Bermuda uchburchagi	1		
25.	Takrorlash	1		
26.	1-CHSB. (40 ball) Test topshiriqlari	1		
27.	Mustahkamlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: 2000 yillik tarix (Loyiha ishi mavzusini baholash va e’lon qilish)

Maqsadlar:

- a) ta’limiy: o‘zbek tilida erkin muloqotga kirishishni o‘rgatish va bilimlarini yanada oshirish. Og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish. Yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida tushuncha berish.
- b) tarbiyaviy: Nutqiy mavzularni izchil va oson o‘zlashtirishi, mavzu doirasida unga xos nutqiy qoliplarni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, dialog, mashqlar va uy vazifasini bajarishni o‘rgatish.
- d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilar nutqini yuqori darajada o‘stirish, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o‘quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

1 O‘qing.

O‘zbekiston 2000 yil avval qanday bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

2 O‘qing. O‘ylang va toping. Gapiring.

Ma’mun akademiyasi – IX asrning 1-yarmida xalifa Ma’mun ar-Rashid tomonidan Bag‘dodda tashkil etilgan ilmiy markaz. Dastlab “Bayt ul-hikma” deb atalgan. Rasadxonaga dastlab marvlik Yahyo ibn Mansur, keyinchalik Muhammad al-Xorazmiy rahbarlik qilgan. Ma’mun akademiyasida turli maqsadlarda ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil qilingan.



“Avesto” – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligi. U bir necha ming yil oldin yaratilgan. “Avesto” kitobi to‘rt qismdan: “Yasna”, “Yasht”, “Visparad” va “Vendidad”dan iborat.

“Tib qonunlari” — Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asari. “Tib qonunlari” o‘z davri tabobatining mufassal ensiklopediyasi bo‘lib, unda inson salomatligiga oid masalalar to‘la bayon etilgan. Ibn Sino tabobatni ilm darajasiga ko‘tardi, uni yunon, rim, hind tabiblarining tajribalariga tayanib, “Tib qonunlari”da aks ettirdi.





‘bek rasadxonasi – Samarqanddagi XV asr
aridan biri. U ko‘hna
tronomik kuzatuv muassasasi bo‘lgan. Ulug‘bek
diqlari 1908-yilda Vasiliy
ekspeditsiyasi tomonidan topilgan.

3 O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: **va, haqida, kabi, lekin, hamda.**

1. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy ... buyuk shaxslar jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan.
2. “Tib qonunlari” dunyo tabobati ... ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.
3. “Avesto” kitobida yaxshilik ... yomonlik o‘rtasidagi kurash aks etgan.
4. Alisher Navoiy ko‘plab she’riy to‘plamlar, nasriy asarlar ... ilmiy risolalar muallifidir.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur boshqa mamlakatlarda yashagan bo‘lsa ham, ... o‘z yurti haqida asarlar yozgan.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: **va, hamda, lekin, ammo, biroq, chunki, shuning uchun**
Namuna. Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi. U Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi.
Anvar sayohatni Samarqanddan boshladi va Amir Temur maqbarasini ziyorat qildi.

1. Men “Navoiy” romanini o‘qimoqchiman. Bu roman asosida olingan filmni ko‘rdim.
2. Men bugun do‘stim bilan kutubxonaga bormoqchi edim. Do‘stim kechikyapti.
3. Men kelajakda arxeolog bo‘lmoqchiman. Tarix fanini chuqurroq o‘rgana boshladim.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna. Shuni doimo yodingda tutki, _____. Shuni doimo yodingda tutki, bilim muvaffaqiyat kalitidir.

1. Shunga ishonamanki, _____.
2. Umidimiz shuki, _____.
3. Shunday yashaylikki, _____.
4. Shuni bilib oldimki, _____.

IV. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e‘lon qilish:

Biror buyuk shaxs haqida (50–100 so‘zdan iborat) ma’lumot yozing.

O‘tmish	Ma‘mun	Ibn Sino	_____
Bugun	Harvard	_____	Ilon Mask

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Renessans

Maqsadlar:

a) ta'limiy: o'zbek tilida erkin muloqotga kirishishni o'rgatish va bilimlarini yanada oshirish. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakillantirish. Yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy: Nutqiy mavzularni izchil va oson o'zlashtirishi, mavzu doirasida unga xos nutqiy qoliplarni aks ettirgan matn, matn yuzasidan topshiriq, dialog, mashqlar va uy vazifasini bajarishni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilar nutqini yuqori darajada o'stirish, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi oladi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

Uyg'onish davri (Renessans) – dastlab



gi madaniy-ma'rifiy yuksalishga nisbatan
ni o'rta asrdan yangi davrga o'tish
aholashgan. Renessansning asosiy
i: tafakkurda va ilmida jaholatni yorib o'tib,
iste'dodi va hurfikrliligini yuzaga chiqarish,
n kurashish bo'lgan.

yada shoirlar — Petrarka va Dante,

asson, adib va mutafakkir Bokkachcholar

Renessans o'qovlarining dastlabki ijodkorlari bo'lishgan.



elanjelo, Rafael, Shekspirlar
i mamlakatlarida buni davom ettirdi.

s faqat Yevropa hodisasi emas.

tini o'rgangan olimlarning ishlari

i, Osiyoda Italiyaga nisbatan bir

lkan madaniy yuksalish yuzaga

alsafa, adabiyot kuchli rivojlanib,

arlik g'oyalari ilgari surilgan. Sharq


Oyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy olimlar

va mashhur mutafakkirlar yetishtirib chiqardi. Bu davrda Osiyoda Farg'oniy,

Forobiy, Firdavsiy, Beruniy, Ibn Sino, Rumiy, Navoiylar ijod qilishgan. Sharqda ham, G'arbda

ham Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotining muhim davri bo'lgan. Bu davr ijodkorlarining

ilmiy va adabiy asarlari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.



Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Daho deganda qanday inson ko‘z oldingizga keladi?
2. Qadimda ham olimlar tarjima bilan shug‘ullanishganmi?
3. Uyg‘onish davri olimlari ilmiy ma‘lumotlarni qaysi manbalardan olgan deb o‘ylaysiz?
4. Siz bugungi kunda ilmiy tadqiqot uchun qaysi mamlakatga borgan bo‘lardingiz?

3 O‘ylang va toping. Yo‘zing.

Namuna. VIII asr oxiri – IX asr boshida Bag‘dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari: Aflotun, Arastu, Suqrot, Hippokrat, Galen, Yevklid asarlari arab tiliga (tarjima qilindi) o‘girildi.

yetishtirib bermoq	vujudga keltirmoq
asos solmoq	o‘girilmoq
tarjima qilinmoq	tayyorlamoq
to‘plamoq	yig‘moq
yaratmoq	tashkil qilmoq

4 O‘ylang va toping. Yo‘zing.

Namuna. Kashfiyotchi – yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi

Nº	Tushuncha	Izoh
1	Alloma	Fikr yurituvchi, chuqur falsafiy fikrlash iste‘dodiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi.
2	Mutafakkir	Yangilik yaratuvchi, kashf qiluvchi; ixtirochi.
3	Faylasuf	Ilm fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan shaxs, olim.
4	Kashfiyotchi	Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug‘ullanuvchi olim, mutaxassis.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Tinglang. Yo‘zing.

1. Al-Farg‘oniy Samarqandda tug‘ildi.
2. U yunon olimlarining asarlarini o‘qish uchun yunon tilini o‘rgandi.
3. Al-Farg‘oniyning asarlari lotin va ibroniy (ivrit) tillariga tarjima qilingan.
4. Olimning “Astronomiya asoslari haqida kitob”idan Yevropa universitetlarida matematika fani bo‘yicha darslik sifatida foydalanilgan.
5. “Astronomiya asoslari haqida kitob” asarida geografiyaga oid bo‘lim ham bor.

IV. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifani e‘lon qilish:

“Al-Xorazmiy va algebra” mavzusida ma‘lumot to‘plab, ulardan matn tuzing. Matn kamida 50 ta so‘zdan iborat bo‘lsin.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

38 listdan iborat 10-sinf o'zbek tili fanidan I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**